



ESTABLISHMENT OF THE EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Historical analysis)

Ural Makhmudov
Free researcher
Karshi State University
Uzbekistan, Karshi

ABOUT ARTICLE

Key words: spiritual and educational events, “Feast of readers”, “Prevention of violations”, religious extremist currents.

Received: 10.12.24

Accepted: 12.12.24

Published: 14.12.24

Abstract: In this article, in addition to educational work in educational institutions during the years of independence, a strong emphasis was placed on the issue of spiritual education. Specific plans for spiritual and educational affairs were drawn up for each academic year, on the basis of the order of the Ministry of higher and secondary special education “On the organization and conduct of spiritual days”, on the last Tuesday of each month from 2004, events “Spiritual hour”, “Days of spirituality” were held in educational institutions.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI YO’LGA QO’YILISHI (Tarixiy tahlil)

Ural Maxmudov
erkin izlanuvchisi
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, “Kitobxonlar bayrami”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi”, diniy ekstremistik oqimlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlar bilan birga ma’naviy tarbiya masalasiga ham kuchli ahamiyat berildi. Har bir o‘quv yili uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha aniq rejalar tuzilganligi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Ma’naviyat kunlarini tashkil qilish va o‘tkazish haqida”gi buyrug‘i asosida

2004 yildan har oyning oxirgi seshanbasida ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat soati", "Ma'naviyat kunlari" tadbirlari o'tkazilib borilganligi asoslab berilgan.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ (Исторический анализ)

Урал Махмудов

Свободный исследователь

Каршинского государственного университета

Узбекистан, Карши

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: духовно-просветительская деятельность, "Праздник читателей", "Профилактика правонарушений", религиозно-экстремистские течения.</p>	<p>Аннотация: В данной статье наряду с учебно-воспитательной работой в образовательных учреждениях в годы независимости большое значение придавалось вопросу духовного воспитания. Исходя из того, что на каждый учебный год составляются конкретные планы духовно-просветительской работы, на основании приказа Министерства высшего и среднего специального образования "Об организации и проведении Дней духовности" с 2004 года в последний вторник каждого месяца в образовательных учреждениях проводятся мероприятия "Час духовности", "Дни духовности".</p>
--	--

KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijasi avvalo ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga ham bog'liqdir. Mamlakat kelajagi bo'lgan yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda ta'lim muassasalari oldida murakkab vazifalar ko'ndalang qo'yildi.

Keyingi yillarda turli bosqichdagi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan birga ma'naviy tarbiya masalasiga ham kuchli ahamiyat berildi. Har bir o'quv yili uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha aniq rejalar tuzilib, uni amalga oshirish uchun qator chora-tadbirlar olib borildi. Masalan, yoshlar ongida turli diniy, ekstremistik g'oyalarga qarshi tushunchalar shakllantirish, turli tarixiy sanalar hamda shaharlar va shaxslarning yubileylarini nishonlash, yil dasturlari, sog'lom turmush va qadriyatlar targ'iboti, huquqbuzarlikka qarshi kurash, yoshlar o'rtasida turli ko'rik-tanlovlarni tashkil etish tadbirlari shular jumlasidandir. Ayniqsa bu tadbirlarning bo'lajak pedagoglar o'rtasida olib borilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

ASOSIY QISM

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Ma'naviyat kunlarini tashkil qilish va o'tkazish haqida"gi buyrug'i asosida 2004 yildan har oyning oxirgi seshanbasida ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat soati", "Ma'naviyat kunlari" tadbirlari o'tkazilib borildi. Talabalar turar joylarida turli dolzarb masalalarga bag'ishlangan qator tadbirlar, davra suhbatlari, jonli muloqotlar o'tkazildi. Oliy ta'lim muassasalari fakultet, kafedralarda guruhlar va talabalar turar joylarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ish rejalari o'quv yili uchun mavjud rejalarda har bir o'quv yilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib bajarildi. Bu tadbirlar asosan vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlar va jamoa hayoti tarziga hurmatni tarbiyalash va talabalar ongida huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirish, sog'lom turmush, yosh yigit va qizlarni oila qurishga tayyorlash, jismoniy tarbiya va sport, axloq va nafosat tarbiyasi, ekologik tarbiya, kasb ustalarini tarbiyalash yo'nalishlari bo'yicha tashkil etildi.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy sohada quyidagi yo'nalishlarda ishlar amalga oshirildi:

Ta'lim muassasalarida talaba-yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, ularni turli xil diniy oqimlar ta'siri doirasiga kirib qolmasliklari uchun olib borilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Har bir akademik guruhga tajribali professor-o'qituvchilardan iborat guruh murabbiylari tayinlanib, ular qo'shimcha maosh oldi va har birining alohida ish rejalari ishlab chiqildi. Fakultetlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovinlari faoliyat ko'rsatib, ularning asosiy vazifasi talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashga, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishga, ularni talabalar turar joylariga tartib-intizomni mustahkamlashga qaratildi.

Har bir fakultetda guruh rahbarlari ijarada hamda xususiy xonadonlarda yashovchi talabalar bilan ish olib bordi.

Talabalar turar joylarida murabbiylar talabalar bilan tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar o'tkazishdi. O'qituvchi-xodimlar, talaba-yoshlar o'rtasida jinoyatchiliklarni oldini olish, giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha maxsus tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sud, prokuratura xodimlari ishtirokida suhbatlar, uchrashuv va muloqot kechalari, davra suhbatlari o'tkazildi.

Talaba-yoshlarni bo'sh vaqtlarini unumli va foydali o'tkazish, mavjud bo'shliqni to'ldirish maqsadida, ularni kinoteatrlarga, tarixiy joylarga, istiqloq yillarida bunyod etilgan inshootlarga

sayohatlari uyushtirildi, turli xil ko‘rik-tanlovlar, olimlar, san’atkorlar, shoir va yozuvchilar bilan qiziqarli uchrashuvlar o‘tkazildi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Respublika prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda “Yoshlar yili” munosabati bilan 2008 yil davomida talabalarning huquqiy ongini oshirish bo‘yicha seminar-uchrashuvlar o‘tkazildi. Reja asosida oliy ta’lim muassasalarida huquq-targ‘ibot idoralari bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan, 2009 yil noyabr-dekabr oylarida “Diniy aqidaparastlik mohiyati”, “Ogohlik davr talabi”, “Ekstremizm va uning oqibatlari”, “Diniy oqimlar va uning maqsadlari” kabi mavzularida Nukus, Qo‘qon, Jizzax pedagogika institutlarida tadbirlar uyushtirildi. Bu kabi tadbirlar universitetlarda ham o‘tkazildi. Masalan, Termiz davlat universitetida 2010-yilning 16-yanvarda “Yoshlar ogoh bo‘ling – diniy ekstremizmdan” 23-yanvarda “Aqidaparastlikning oqibati”, 17-fevralda “O‘zbek maqollarida din va diniy aqidaparastlik haqida”, 12 martda “Ichkilikbozlik, ekstremizm va giyohvandlik – eng yovuz illat”, 10 aprel “Biz-diniy ekstremizmga qarshimiz” kabi tadbirlar o‘tkazildi. 2010-yilning 13-yanvarida ham “Diniy ekstremizm va terrorizm, uning oqibatlari” kabi mavzularda tadbirlar tashkil qildi[2].

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari doimiy ravishda radio va televideniya orqali chiqishlar qilib, dolzarb mavzularda ma’ruzalar qilib, intervyular berib turdi. Masalan, Surxondaryo viloyat televideniyesida Termiz davlat universiteti professor - o‘qituvchilari tomonidan 2010-yil davomida 10 marta madaniy-ma’rifiy mavzularda suhbatlar o‘tkazildi, jumladan, o‘sha yilning 8 fevralida o‘zbek adabiyoti kafedrasida professor-o‘qituvchilari B.Murtazoyev va N.Yo‘ldoshevlar Alisher Navoiy tavalludining 569 yilligi, shuningdek, 13 fevralda Bobur tavalludining 527 yilligiga bag‘ishlangan davra suhbatlarini o‘tkazdi. Termiz davlat universiteti talabalar turar joyida 2010-yil 12-fevralda musiqiy ta’lim kafedrasida tomonidan Bobur tavalludiga bag‘ishlangan “So‘z va soz sehri” mavzusida, 2010-yil 15-aprelda psixologiya kafedrasida tomonidan “Muomala sirlari” mavzusidagi tadbirlar o‘tkazildi. 3-sonli talabalar turar joyida agroinjeneriya va kimyoviy texnologiya kafedrasida tomonidan 2010-yil 22-fevralda “Ayol borki olam munavvar” 2010-yil 25-fevralda “Jahon moliyaviy inqiroziga qarshi kurash” mavzularida davra suhbatlari, 2010-yil 23-fevralda O‘zbekiston BMTga a‘zo bo‘lganligining 18 yilligi munosabati bilan va 2010-yil 27-fevralda Zulfiyaxonim ijodiga bag‘ishlangan adabiy kechalar o‘tkazildi[3].

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari doimiy ravishda radio va televideniya orqali chiqishlar qilib, dolzarb mavzularda ma’ruzalar qilib, intervyular berib turdi. Masalan, Surxondaryo viloyat televideniyesida Termiz davlat universiteti professor-o‘qituvchilari tomonidan 2010-yil davomida 10 marta madaniy-ma’rifiy mavzularda suhbatlar o‘tkazildi, jumladan, o‘sha yilning 8 fevralida o‘zbek adabiyoti kafedrasida professor-o‘qituvchilari

B.Murtazoyev va N.Yo'ldoshevlar Alisher Navoiy tavalludining 569 yilligi, shuningdek, 13 fevralda Bobur tavalludining 527 yilligiga bag'ishlangan davra suhbatlarini o'tkazdi. Termiz davlat universiteti talabalar turar joyida 2010-yil 12 fevralda musiqiy ta'lim kafedrasidan Bobur tavalludiga bag'ishlangan "So'z va soz sehri" mavzusida, 2010 yil 15 aprelda psixologiya kafedrasidan "Muomala sirlari" mavzusidagi tadbirlar o'tkazildi. 3-sonli talabalar turar joyida agroinjeneriya va kimyoviy texnologiya kafedrasidan 2010-yil 22 fevralda "Ayol borki olam munavvar" 2010 yil 25 fevralda "Jahon moliyaviy inqiroziga qarshi kurash" mavzularida davra suhbatlari, 2010-yil 23-fevralda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligining 18 yilligi munosabati bilan va 2010-yil 27-fevralda Zulfiyaxonim ijodiga bag'ishlangan adabiy kechalar o'tkazildi[4].

2011-2012 o'quv yilida Farg'ona davlat universitetida 278 ta, 2012-2013 o'quv yili davomida esa 203 ta, 2013-2014 o'quv yilida 300 dan ortiq uchrashuv, seminar, ochiq muloqot, ko'rik-tanlov va sport musobaqalari o'tkazildi. Mustaqillik bayrami, Navro'z, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, Navoiy va Bobur tavallud kunlari doimiy tarzda nishonlanadi[5].

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 2014-yil "Kitobxonlar bayrami" madaniy-ma'rifiy tanlovining 1-2-bosqichi o'tkazildi. Tanlovda universitet talabalari ishtirok etib, faxtli o'rinni egalladi. 3 nafar talaba tanlovda g'olib bo'ldi va tanlovning respublika bosqichiga tavsiya etildi. Toshkent moliya institutida o'tkazilgan yakuniy bosqichda universitetning 3 nafar talabasi qatnashib, San'at fakulteti 2-kurs talabasi Rustam Valiyev 3-o'rinni egalladi[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 31-oktabrdagi "O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi PQ-2256-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida qator tadbirlar olib borildi. 2015-yilning 27-fevral kuni Qo'qon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar va geografiya fakultetida O'zbekiston Xalq shoirasi Zulfiyaxonimning 100 yilligiga bag'ishlangan "She'riyat tongining yulduzi" nomli tadbir kechasi bo'lib o'tdi[7].

2015-yilning fevral oyida universitet talabalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy markazi, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda "Talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik hamda narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish" mavzusida, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xodimlari bilan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirish yuzasidan tadbir hamda Yakkasaroy tumani prokuraturasi xodimlari bilan "Yoshlarni turli yot

g‘oyalari ta‘siridan himoya qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi[8].

Bu kabi tadbirlar Qo‘qon davlat pedagogika institutida ham olib borildi. Talabalarga OIV/OITSni oldini olish maqsadida turli tadbirlar, davra suhbatlari, seminarlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 30-avgustdagi “1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha buyrug‘ini e‘lon qildi. Qo‘qon davlat pedagogika instituti 6 ta fakultetda (tarix, pedagogika, fizika-matematika, jismoniy madaniyat, filologiya, tabiiyot-geografiya) “Bayramingiz muborak – aziz Ustozlar” shiori ostida turkum tadbirlar o‘tkazilgan. Institutning faxriy o‘qituvchilari M.Xoshimova, I.Po‘latov, N.Oxunovlar bilan filologiya fakultetining o‘zbek tili yo‘nalishida, M.Mamajonov, Y.Jo‘rayev, Sh.Soliyevlar fizika-matematika fakultet-larida davra suhbatlari o‘tkazishdi[9].

Jumladan, 2014-yil 8-sentabr kuni ingliz tili yo‘nalishi 2-gurux talabalari bilan “OIV/OITSning profilaktikasi” mavzusida D.Ibragimova hamda institut shifokori X.Saidovalar ishtirokida davra suhbatlari o‘tkazildi. Shu kuni institut faollar zalida Qo‘qon shahar IIB boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik B.To‘ychiyev, IIB shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘limi katta inspektori S.Mamajonov, jinoyat-qidiruv bo‘limi xodimi A.Imomovlar bilan “Yoshlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurash”, “Giyohvandlik, ichkilikbozlik va giyohvandlikning ijtimoiy-salbiy oqibatlarini” hamda “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash” mavzusida uchrashuv o‘tkazildi[10].

2017-2018 yillar davomida Qo‘qon davlat pedagogika institutida “Huquqbuzarlik profilaktikasi va qonunbuzarlikning oldini olish”, “Odam savdosiga qarshi kurashish”, “Xuquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish”, “Ma‘rifiy islom aqidaparastlikni qoralaydi”, “Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid”, “Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga har birimiz mas‘ulmiz”, “Qonun ustuvorligi – taraqqiyot garovi”, “Diniy ekstremistik oqimlar, missionerlik – davlat va jamiyatga tahdid”, “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” “O‘zbekiston yoshlari buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi” mavzularida tadbirlar tashkil etildi. Tadbirlarda Farg‘ona viloyati IIB va Qo‘qon shahar IIB xodimlari faol ishtirok etdi. Shuningdek, tadbirlarda din vakillari ham ishtirok etib, talaba yoshlarga islom ta‘limotidan ma‘ruza o‘qidi. Masalan, 2017-yil 9-noyabr kuni institutda huquq-tartibot idoralari xodimlari tomonidan o‘tkazilgan “Biz yot g‘oyalarga qarshimiz” shiori ostida “Ma‘rifiy islom aqidaparastlikni qoralaydi” mavzusidagi uchrashuvda Xazrati Abbos masjidi imom xatibi A.Saydullayev, viloyat IIB Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi xodimi D.Arslonov ishtirok etdi. Uchrashuvda talabalarga huquq-tartibot idora

xodimlari tomonidan taqdim etilgan “Tafakkur ehtiyoji” nomli videorolik namoyish etildi. Institutda shu yilning 13 noyabrida o‘tkazilgan “Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid” mavzusidagi davra suhbatiga G‘ishtli masjid imom xatibi M.Otajonov ham taklif etildi[11].

XULOSA

Ma’naviy tarbiyada talaba yoshlar teatr, sirk va boshqa tomoshalarga guruhlar bilan birgalikda tashrifini uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, 2018-yil 17-18 sentabr kunlari Qo‘qon o‘zbek drama teatrida “Qo‘qonning o‘n ikkinchi darvozasi” nomli spektakl Qo‘qon davlat pedagogika institutining 1400 nafar talabalariga namoyish etildi. Bundan tashqari 2018-yil 5-oktabr kuni Qo‘qon madaniyati tarixi davlat muzeyi (Xudoyorxon o‘rdasi)da “Nazm, navo va nafosat” deb nomlangan anjuman o‘tkazilib, unda ham talaba yoshlar faol ishtirok etdi. Anjumanda Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasidan “Nafosat olamining daqiq mo‘jizalari” deb nomlangan mavzuviy ko‘rgazma tashkil etildi. Anjumanda 10 nafar professor-o‘qituvchi va 100 nafar talabalar ishtirok etdi. Shu yilning 5-6 oktabr kunlari Qo‘qon shahridagi “Temiryo‘lchi” madaniyat saroyida “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan tayyorlangan “Islomxo‘ja” nomli tarixiy, badiiy-publitsistik filmi 1500 nafar talabalarga namoyish etildi[12].

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti nomzodlarini tayyorlash ishlari keyingi yillarda ham davom ettirildi. Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2017-yil 25-martda “Zulfiyaxonim izdoshlari” mavzusida fakultetlararo talaba-qizlar bellashuvi o‘tkazildi. Bellashuv 4 ta shart bo‘yicha o‘tkazilib, 8 ta nominatsiya bo‘yicha ishtirok etdi[13].

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining “O‘zMU xabarleri”, “Falsafa va huquq” ilmiy jurnallari respublika miqyosidagi nufuzli nashrlardan biridir. 2017-yildan boshlab jurnal 3 bo‘limga bo‘lingan holda chop etilib bordi. Jurnalda ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari, yechimini kutayotgan masalalar aks etgan maqolalar, boshqa mamlakatlardagi fan va texnikaga oid yangiliklar, O‘zMU va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan konferensiyalar va anjumanlar haqida axborotlar, ilmiy xabarlar chop etildi[14].

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Toshkent shaḥar davlat arxivini, 640-fond, 4-pūyḥat, 51-iḥ, 28-29-varaḥlar.
2. Termitz davlat universiteti jorij arxivini. Universitetda 2009-2010 ŷquv ŷilida amalga oshirilgan maḥnaviy-maḥrifiiy iḥlar tūḡrisida Maḥlumotnoma papkasidan.
3. Termitz davlat universiteti jorij arxivini. Universitetda 2009-2010, 2010-2011 ŷquv ŷillarida amalga oshirilgan maḥnaviy – maḥrifiiy iḥlar tūḡrisida Maḥlumotnomalar papkasidan.
4. Termitz davlat universiteti jorij arxivini. Universitetda 2009-2010, 2010-

2011 ўқув йилларида амалга оширилган маънавий – маърифий ишлар тўғрисида Маълумотномалар папкасидан.

5. Фарғона давлат университети жорий архиви. Университетда 2011-2012, 2012-2013, 2013-2014 ўқув йилларида амалга оширилган маънавий – маърифий ишлар тўғрисида Маълумотномалар папкасидан.

6. Тошкент шаҳар давлат архиви, 640-фонд, 5-рўйхат, 300-иш, 25-варақ

7. Қўқон давлат педагогика институти Ёшлар билан ишлаш проректори Ойбек Бозоров билан суҳбат (2020 йил 18 сентябрь).

8. Тошкент шаҳар давлат архиви, 640-фонд, 5-рўйхат, 300-иш, 26-варақ

9. Қўқон давлат педагогика институти жорий архиви. Институтда 2014-2015 ўқув йилида амалга оширилган маънавий – маърифий ишлар тўғрисида Маълумотнома папкасидан, 3-8 варақлар.

10. Қўқон давлат педагогика институти жорий архиви. Институтда 2014-2015 ўқув йилида амалга оширилган маънавий – маърифий ишлар тўғрисида Маълумотнома папкасидан, 2-4 варақлар.

11. Қўқон давлат педагогика институти жорий архиви. Институтда 2017-2018 ўқув йилида амалга оширилган маънавий – маърифий ишлар тўғрисида Маълумотнома папкасидан, 3-5 варақлар.

12. Қўқон давлат педагогика институти Ёшлар билан ишлаш проректори Ойбек Бозоров билан суҳбат (2020 йил 18 сентябрь).

13. Қўқон давлат педагогика институти Ёшлар билан ишлаш проректори Ойбек Бозоров билан суҳбат (2020 йил 18 сентябрь).

14. Ўзбекистон Миллий университети жорий архиви. Илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш бўлимнинг 2017 йил ҳисоботлари маълумотномаси папкаси.